



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI**

**QORAQALPOG'ISTON QISHLOQ XO'JALIGI VA
AGROTEXNOLOGIYALAR INSTITUTI**

ZOOINJENERIYA FAKULTETI

**QISHLOQ XO'JALIGINING DOLZARB MASALALARI
VA INNOVATSION YECHIMLAR**

**АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ СЕЛЬСКОГО
ХОЗЯЙСТВА И ИННОВАЦИОННЫЕ РЕШЕНИЯ**

**ACTUAL ISSUES OF AGRICULTURE AND INNOVATIVE
APPROACHES**

mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

28.11.2025



Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar institutida 2025 yilning 28 noyabr kuni **"Qishloq xo'jaligining dolzarb masalalari va innovatsion yechimlar"** mavzusidagi **xalqaro ilmiy-amaliy** konferentsiyasi. 2025 yil. – 852 b.

Mazkur xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiyada xalqaro ilmiy tadqiqotlar, oliy o'quv yurtlari va ilmiy tadqiqot institutlarining professor-o'qituvchilari, doktorantlar va tayanch doktorantlar, mustaqil va mustaqil izlanuvchilar, magistrantlar, iqtidorli talabalarning ilmiy tadqiqot ishlari hamda ishlab chiqarishda xizmat ko'rsatayotgan mutaxassisliklarning ilg'or ish tajribalari xulosalari aks ettirilgan. Natijalar qishloq va suv xo'jaligi mutaxassislari, ilmiy xodimlar, oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalari xodimlari, shuningdek doktorantlar, magistrant va talabalar uchun foydalanishga mo'ljallangan.

Tahrir hay'ati raisi:

Jollibekov Berdiyev Baxtiyarovich

Tahrir hay'ati a'zolari:

**A.Dawletmuratov, N.Absattarov, A.Sayimbetov, B.O.Bauetdinov,
R.Beglerbekov, G.Abdrimova, S.Eshmuratova, Z.Allamuratova**

Ma'sul muharrirlar:

T.Q.Naurizov q.x.f.f.d, dotsent

S.Yeshchanova b.f.f.d, dotsent

Taqrizchilar:

B.Allamuratov b.f.d, professor

B.Ajiniyazov b.f.f.d, dotsent

Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti Ilmiy Kengashida ko'rib chiqilib, nashrga ruxsat etildi. 2025 yil "25" oktyabr № 3-sonli bayonnomasi.

BOLALAR O‘YINLARIDA AQLNI RIVOJLANTIRISHNING O‘RNI

Annotatsiya: *Bu maqolada milliy o‘yinlarning bola tarbiyasidagi o‘rni haqida aytilib, bolalarni amaliy o‘ylashga tarbiyalash, zukkollikka o‘rgatish, narsa va hodisalarni taqqoslash orqali bir-biridan farqini bilish kabi aqlni takomillashtiruvchi uslublar keng o‘rin olgan. O‘yin bolalardagi epchillik, jasurlik, iqtidorli tarkib topdiruvchi qurol sifatida tan olinib, o‘yin jaraënida o‘larni tarbiyalashga imkoniyat yaratilgan.*

Kalit so‘zlar: *Bolalar, milliy o‘yinlari, tarbiya, taqqoslash, chaqqonlik, chidamlilik, g‘ayratlilik, kuchlilik.*

Kirish (adabiyotlar sharhi): Xalq pedagogikasi tarbiyada bolalar o‘yiniga katta e‘tibor qaratgan. O‘yin bolalardagi epchillik, jasurlik, iqtidorli tarkib topdiruvchi qurol sifatida tan olinib, o‘yin jaraënida o‘larni tarbiyalashga imkoniyat yaratilgan. Bolalarni yosh davrlariga bo‘lganda «o‘yin bolasi»-deb alohida davr belgilab bergan. Ayniqsa, o‘yinining diqqat, sezgi, idrok, hotira, tafakkur va boshqa hislatlarini tarkib toptirishdagi xizmatiga e‘tibor berilgan. Xalq pedagogikasida bola tarbiyalash ananalarida o‘yin bolalarining vaqt o‘tkazishi o‘chun ermak emas, balki o‘larni tarbiyalashning asosiy yo‘nalishlari qatoriga kiritilgan. Bunda bolalarni amaliy o‘ylashga tarbiyalash, zukkollikka o‘rgatish, narsa va hodisalarni taqqoslash orqali bir-biridan farqini bilish kabi aqlni takomillashtiruvchi uslublar keng o‘rin olgan. Xalq o‘yinlari taraqqiyotning barcha bosqichlarida o‘z davri odamlarining xayoti, turmush tarzi, mehnat sharoiti, millati, dini va boshqa o‘ziga xos belgilarini o‘zida mujassam etib kelgan va ishtirokchilarda chaqqonlik, chidamlilik, ijodiy topag‘onlik, g‘ayratlilik, kuchlilik sifatlarini tarbiyalashga xizmat qilgan.

Bolalar o‘yinlarida shu bilan bir qatorda yengil hazil, musobaqa, jamoaviy birlikka yo‘naltiruvchi sifatlar ko‘proq ko‘zga tashlanadi. Qoraqalpoq xalq o‘yinlarini turlicha tasniflash mumkin. Masalan, o‘yin ishtirokchilarning yoshiga nisbatan: bolalar, o‘smirlar, kattalar, jinsga nisbatan: o‘g‘il bolalar, qiz bolalar, erkak va ayollar, mavsumga nisbatan: baxorgi, qishgi, yozgi, kuzgi, o‘ynaladigan joyga nisbatan: maydon, suv, xona, kasbga nisbatan: dehqon, chorvador, hunarmand va boshqalar.

Materiallar va uslublar: Qoraqalpoq xalqining folklor-etnografik jamoalari tomonidan xalq o‘yinlari asosida qadimiy kuy-qo‘shiqlarga yangicha ruh berilib, sayqallanib hozirgi avlod vakillari ongiga singdirilmoqda. Xalq pedagogikasida yuqori baho berilgan Qoraqalpoq xalqining milliy bolalar o‘yinlari «Jumboq», «Avalaman-duvalaman», «Bosh barmoq», «Besh tosh», «Kuchmak», «Chullik», «To‘qqiz qumaloq», «Qocharman top» va keyniroq paydo bo‘lgan «Tepmak», «Lanki» o‘yinlardan aqliy tarbiya berishda, hisob-kitobga o‘rgatishda, mantiqiy

fikrlashni rivojlantirishda keng foydalanilgan. Xalq pedagogikasidagi bolalar o'yinlari aql va mantiqiy fikrlashni rivojlantiruvchi omil sifatida hozirgi davrda keng qullanilmoqda. Bunday o'yinlar insonlarni, jumladan yoshlarning har xil xunuk illatlardan uzoqroq yurishga undaydi. Qoraqalpoq xalq bolalar o'yinlari o'zining uzoq o'tmishi, boy tarixiga ega bo'lgan, ajdodlardan avlodlarga meros sifatida o'tib kelayotgan, ma'naviy boyligimiz, qadriyatlarimizdan sanaladi. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgan dastlabki kunlardan boshlab, milliy qadriyatlarimiz, udumlarimiz, xalq o'yinlarini qayta tiklashga katta e'tibor qaratildi.

Bugun yurtimizda yoshlarni milliy xalq o'yinlariga keng jalb qilish sog'lom avlodni voyaga yetkazishning muhim omili sifatida qaralmoqda. Sog'lom avlodni shakllantirishda milliy xalq o'yinlari muhim ahamiyatga ega. Barchamizga ma'lumki, butun yer yuzida har bir xalq millat sifatida shakllanibdiki, ular o'zining milliyligiga egadir, shu qatorda qoraqalpoq xalqining milliy urf-odatlarini, an'analarini, qadriyatlarini va shu bilan birgalikda milliy o'yinlari shakllanib bordi. Shu o'rinda savol tug'iladi, ajdodlarimiz nima sababdan o'yinlar o'ynashgan. O'yinlar – xalqning tabiiy va tarixiy ehtiyoji sifatida shakllangan, ya'ni har bir shaxs o'yinga nisbatan o'zida yaxshi ehtiyoj sezgan. Shu boisdan insonlar o'z mashg'ulotlaridan, mehnatidan, yashash sharoitidan hamda ijtimoiy muhitdan kelib chiqqan holda o'yinlarni yaratishgan. Shuningdek, xalq o'yinlari ajdodlar turmushi, mehnati, tarbiyasi, yutuqlarini o'zida aks ettirgan. Ular sog'lom avlodni shakllantiruvchi tarbiya vositasi va bolalarni ijtimoiy-ruhiy, aqliy rivojlanishiga xizmat qiluvchi muhim omil hisoblangan.

Xalq o'yinlari inson hayotidagi bo'shliqni to'ldiradigan, tanasidagi ortiqcha kuchni sarflashga, yetmaganini esa to'plashga yordam beruvchi vosita hisoblangan. Bundan tashqari bolalar o'yinlar orqali hayotga tayyorgarlik ko'rishgan, turmushdagi qiyinchiliklarni yengib o'tishga, ish va kurashda g'alaba qozonishni o'rganishgan. Milliy bolalar o'yinlari, bo'sh vaqtni unumli va maroqli o'tkazishga qaratilgan, har bir shaxsni aqlan raso va jismonan sog'lom bo'lishga undaydigan, ko'tarinki ruh hamda kayfiyat ulashuvchi, mardlikka, epchillikka, chaqqonlikka qolaversa, ezgulikka chorlovchi tarbiya vositasidir.

Natijalar: Milliy xalq bolalar o'yinlarining sog'lom avlod tarbiyasidagi ahamiyati katta. O'yinlarning pedagogik ahamiyati—o'yin har bir shaxsning his-tuyg'usini, tasavvurini, dunyoqarashini boyitib boradi. Yana ularning kuzatuvchanligini, ziyrakligini, zehni tahlil qilib, bilimini oshiradi. O'yinlar orqali yoshlarga madaniyatimiz va urf-odatlarimizni tanishtiradi. Milliy o'yinlar o'ynalganda bolalar jismoniy sog'lom bulib, organizm tizimlari va nafas olish, mushak, yurak qon tomirlarga samarali ta'sir qiladi. O'yinlar ochiq havoda o'ynalganda qon kislorod bilan to'yinadi va bu modda almashinuvini kuchaytiradi. Bu esa organizmga ijobiy ta'sir ko'rsatadi va barcha hujayralar uyg'onadi. O'yin o'ynagan har bir shaxs jismonan sog'lom va baquvvat bo'lib voyaga yetadi. Bolalarning ota-onalari besh tosh o'ynasa, qizlar chaqqon bulib, chullik o'ynasa, bola sog'lom o'sadi, langi tepsa, tetik va baquvvat bo'lishiga ishonishadi. Shuning bois ham o'zlari bolalari uchun maxsus yog'ochdan chillak tayoqchalarini yasab bersalar, toshlarning tekisidan va teng kattaligidan tanlasa, qo'rg'oshinni eritib

teriga yopishtirib, langi tayyorlab berishadi. Bolalarining bo'sh vaqtlari unumli va maroqli o'tishi uchun o'zlari zamin yaratib berishadi.

Chullik, besh tosh va lanki zararsiz milliy o'yinlarimiz qatoriga kiradi. Bu o'yinlarni o'ynagan bolalar chiniqadi, sog'lom va baquvvat bo'ladi. Mo'ljalni aniq olishga, oyoqlari tez yugurishga moslashadi. Qo'l va oyoqlarning to'g'ri o'sishini ta'minlaydi. Bir qaraganda chullik xavfli o'yindek tuyulishi mumkin. Ammo o'yin chog'ida cho'plar uch tomonidan emas, qiya holatda mo'ljalga uzatilishi tufayli atrofdagilarga zarar keltirmaydi. O'yinlar shaxsning ruhiyati va kayfiyatini ko'tarishga xizmat qiladi. O'yinlarning tarbiyaviy ahamiyati–yoshlarni irodali, sabr-toqatli, hayot qiyinchiliklarini yengadigan, g'alaba qozonishga intiladigan, chaqqon, epchil, mard qilib tarbiyalaydi.

Xulosa va tavsiyalar: Yosh avlodni barkamol insonlar etib tarbiyalashda ajdodlarimizning dono o'gitlari bilan birga, ular tomonidan o'ylab topilgan milliy halq o'yinlarining ham o'rni beqiyosdir. Bunday o'yinlar yuz yillar davomida ommalashib, xalqning ijtimoiy hayoti, maishiy turmush tarzi negizida taraqqiy etib, bizgacha yetib kelgan. Ayniqsa, Navro'z, zurraat bayramlarida xalq sayllarida xalq o'yinlarisiz tasavvur etish qiyin. Shunday ekan, bolalarimizning ongida ma'naviy bo'shliq qoldirmasdan, ularni ham ma'nan ham jismonan barkamol qilib voyaga yetkazishimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. U. Alewov, A. Bekimbetova «Xalq pedagogikasida yoshlarga aqliy tarbiya berish an'analari» Nukus «Qaraqalpaqstan» 2018, 104-bet.
2. Maxmud Sattor «O'zbek udumlari» Toshkent «Fan» 1993, 224-bet.
3. U. Alewov «Qaraqalpaqstanda talim-tarbiyaliq oylarini qaliplesivi ham rawajlanivi» Nókis «Bilim» 1993, 503-bet.
4. Aytniyazov A.A., Niyazov A.T., Niyazov A.T., Niyazova O.YU. Kóshpek (Oyinni tartibi) Nókis-2012 j. 56-bet.

UDK 519.793

Paxratdinova Tazagul Karamatdinovna

Qaroqalpoqston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti, assistent
tazagul.paxratdinova.71@mail.ru

A'zamov Rashid Sayfullo o'g'li
r.azamov-2002@mail.ru

Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti
Axborot tizimlari va texnologiyalari talim yo'nalishi 3-kurs talabasi

BOLALARDA MATEMATIK O'YINLARINING SHAKLLANISHI VA O'LARNING NAZARIY ASOSLARI

Annataciya: Ushbu maqolada ilk zamonlarda sanash uchun foydalangan narsalar va predmetlar haqida so'z etilib, qadim zamonlarda hisoblash asboblarning paydo bo'lishi, rivojlanishi va bolalarda shakllanishi haqida so'z

Омарова Саригул Жумабаевна, Оразов Мийрибек Мухтар улы, Дауленов Рахат Азамат улы	
ТЕХНОЛОГИЯ ПОЛУЧЕНИЯ СИЛИКАТНОГО КИРПИЧА НА ОСНОВЕ ЗОЛОТИСТАЯ ОХРА ТАС-КАЗГАНСКОГО МЕСТОРОЖДЕНИЯ.....	789
Paxratdinova Tazagul Karamatdinovna	
BOLALAR O'YINLARIDA AQLNI RIVOJLANTIRISHNING O'RNI.....	792
Paxratdinova Tazagul Karamatdinovna, A'zamov Rashid Sayfullo o'g'li	
BOLALARDA MATEMATIK O'YINLARINING SHAKLLANISHI VA O'LARNING NAZARIY ASOSLARI.....	794
Paxratdinova Tazagul Karamatdinovna, Bisenbaeva Feruza Baxitjanovna	
QARAQALPAQ XALQINIŇ ESKI AWIRLIQ HÁM UZINLIQ ÓLSHEM BIRLIKLERI.....	798
Uzaqbaev Rasul Maxsud uli	
QISHLOQ XO'JALIGI JARAYONLARINI OPTIMALLASHTIRISH	800
Eshmuratov Rustambek Seydullaevich, Abdukarimov Nasibkamal Abdulkarimovich, Maulenov Azamat Kuralbaevich	
DISKRET MATEMATIKA PÁNIN OQÍTIWDA JASALMA INTELEKT (AI) JÁRDEMINDE PROEKTLESTIRIW.....	803
Ахметова Сабира Тастановна, Сейтханова Айгерим Даулетбековна	
РАЗРАБОТКА ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОЙ СИСТЕМЫ ПОДДЕРЖКИ ПРИНЯТИЯ РЕШЕНИЙ В СЕЛЬСКОМ ХОЗЯЙСТВЕ ДЛЯ ПРОГНОЗИРОВАНИЯ УРОЖАЙНОСТИ НА ОСНОВАНИИ AI.....	808
Safarboyev Jo'rabek Olimjonovich	
GIDRAPONIKA TIZIMLARINI AI TEXNOLOGIYALARI VA RAQAMLASHTIRISH ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	813
Saparnizova Gulbahar Kalieva	
LAZER BILAN ISHLOV BERILGAN POLIZ EGINLARINING QURG'OQCHILIK SHAROITIGA CHIDAMLILIGI.....	816
Сапарниязова Гулбахар Калиевна, Есемуратова Умида Нурмухаммедовна, Жаксымова Зулкумар Женисбай кызы	
ЛАЗЕРНЫЕ ВОЗДЕЙСТВИЯ ПРИ ОБРАБОТКЕ РАСТИТЕЛЬНЫХ И ОВОЩНЫХ ПРОДУКТОВ.....	821
Serjanova Dilbar Saatbayevna	
RFID TEGLARINI LOKALIZATSIYA QILISH ASOSLARI VA MUAMMOSI	823
Tursinbaeva Gulaym Sabit kyzy	
SUSTAINABLE USE OF SOLAR ENERGY IN MODERN GREENHOUSE FARMING	827
Abdikarimov Shaxzodbek Quralbay uli, Kdirbaev Aman Asen uli	
AWIL XOJALIGINDA SOCIYAL TARMAQLARDIŇ QOLLANIWI.....	829